

MAHALLALARNI BIZNES YO'NALISHLARI BO'YICHA IXTISOSLASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA AHAMIYATI

Yodgorov Farrux G'afforovich

Agrobank ATB Xududiy dasturlar monitoringi Boshqarma boshlig'i

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21785577>

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning markazida mahalla instituti turibdi. 2022-yildan joriy etilgan "mahallabay" ishlash tizimi hamda har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari institutining tashkil etilishi mahallani iqtisodiy siyosatning birlamchi bo'g'iniga aylantirdi. Ushbu sharoitda har bir mahallaning tabiiy-iqtisodiy salohiyati, mehnat resurslari va an'alaridan kelib chiqqan holda uni muayyan biznes yo'nalishlariga ixtisoslashtirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Mahallalarni biznes yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashtirish deganda, har bir mahallada mavjud resurslar, infratuzilma, aholining kasbiy ko'nikmalari va bozor talabini hisobga olgan holda bitta yoki bir nechta ustuvor iqtisodiy faoliyat turini (masalan, bog'dorchilik, issiqxona xo'jaligi, hunarmandchilik, tikuvchilik, xizmat ko'rsatish, agrosanoat qayta ishlash va boshqalar) maqsadli rivojlantirish tushuniladi. Mazkur yondashuvning nazariy asoslari iqtisodiyot fanidagi mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv to'g'risidagi ta'limotlarga borib taqaladi: A.Smit mehnat taqsimoti unumdorlik o'sishining asosiy manbai ekanligini asoslagan bo'lsa [2], A.Marshall ishlab chiqarishning hududiy jamlanishi – sanoat hududlari ichki iqtisodiy samara (eksternaliya)lar yaratishini ko'rsatgan [3]. M.Porterning klaster nazariyasi esa o'zaro bog'liq faoliyat turlarining muayyan hududda jamlanishi raqobat ustunligini shakllantirishini isbotlagan [4]. Mahalla darajasidagi ixtisoslashuv mazkur nazariyalarning milliy iqtisodiyotimizning eng quyi hududiy bo'g'inidagi amaliy ifodasidir.

Mahallalarni ixtisoslashtirishning iqtisodiy mazmuni quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi. Birinchidan, ixtisoslashuv mehnat taqsimotini chuqurlashtirib, mahalla aholisining muayyan faoliyat turidagi kasbiy mahorati va mehnat unumdorligini oshiradi. Ikkinchidan, bir yo'nalishdagi kichik ishlab chiqaruvchilarning hududiy jamlanishi miqyos samarasini yuzaga keltiradi: xomashyoni ulgurji xarid qilish, umumiy infratuzilmadan (sovutkich omborlar, quritish sexlari, savdo majmualari) birgalikda foydalanish hamda mahsulotni yirik partiyalarda sotish imkoniyati kengayadi. Uchinchidan, ixtisoslashgan mahallada ta'lim-tajriba almashinuvi, ustoz-shogird an'analari va innovatsiyalarning tarqalishi tezlashadi. To'rtinchidan, ixtisoslashuv mahalla mahsulotining o'ziga xos "brend"ini shakllantirib, uning bozordagi tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Mazkur yondashuvning moliyaviy jihatdan ahamiyati ham yuqoridir. Ixtisoslashgan mahallalarda tijorat banklari uchun kreditlash obyektlari aniq va bir xil turdagi faoliyatdan iborat bo'lgani bois, kredit tahlili va monitoring xarajatlari kamayadi, sohaga xos risklarni baholash osonlashadi hamda standartlashtirilgan kredit mahsulotlarini (masalan, issiqxona krediti, hunarmandchilik mikrokrediti) ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun 21,8 trln so'mlik kreditlar ajratilib, 755 mingdan ortiq fuqaro qamrab olingan [5]. Mahallalarning biznes yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashuvi mazkur mablag'larning manzilli va samarali yo'naltirilishiga xizmat qiladi.

Ixtisoslashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati quyidagilarda o'z ifodasini topadi: aholi bandligini ta'minlash va oilaviy daromadlarni barqaror oshirish; ichki migratsiyani jilovlash va yoshlarni o'z mahallasida daromad topishga rag'batlantirish; mahalliy xomashyo va mehnat resurslaridan to'liq foydalanish; qo'shilgan qiymat zanjirlarini hudud ichida shakllantirish hamda kambag'allikni qisqartirishning barqaror mexanizmini yaratish. Shuningdek, ixtisoslashgan mahallalar turizm va eksport salohiyatiga ham ega bo'ladi: hunarmandchilik mahallalari sayyohlik yo'nalishlariga aylanishi, bog'dorchilik va issiqxona mahallalari esa eksportbop mahsulot yetishtirishga yo'nalishi mumkin.

Shu bilan birga, mahallalarni ixtisoslashtirishda bir qator masalalarga e'tibor qaratish lozim. Ixtisoslashuv ma'muriy buyruqbozlik asosida emas, balki mahallaning real salohiyati, aholining xohish-irodasi va bozor talabi asosida amalga oshirilishi kerak. Bir yo'nalishga haddan ortiq bog'lanib qolish bozor konyunkturasi o'zgarganda risklarni kuchaytirishi mumkinligi bois, asosiy yo'nalish bilan bir qatorda unga xizmat qiluvchi yondosh faoliyat turlarini ham rivojlantirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, hokim yordamchilari, tijorat banklari va tarmoq birlashmalari o'rtasidagi hamkorlikni institutsional mustahkamlash, har bir mahallaning "iqtisodiy pasporti" asosida ixtisoslashuv yo'nalishlarini ilmiy asoslangan holda belgilash talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, mahallalarni biznes yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashtirish – mehnat taqsimoti, miqyos samarasi va klaster yondashuviga asoslangan, aholi bandligi va daromadlarini oshirishning samarali iqtisodiy mexanizmi hisoblanadi. Mazkur yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun har bir mahallaning iqtisodiy salohiyatini chuqur o'rganish, ixtisoslashuv yo'nalishlariga mos imtiyozli kreditlash va infratuzilma dasturlarini shakllantirish hamda mahalliy brendlarni yaratish va ilgari surish choralarini ko'rish lozim. Bu pirovardida "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan aholi farovonligini oshirish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi [1].

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni.
2. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.
3. Marshall A. Principles of Economics. – London: Macmillan, 1890.
4. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistik byulleteni. 2026-yil mart. – <https://cbu.uz>